SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI







# SURXONDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

## 2023- YIL
## YANVAR-FEVRAL

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 582,9 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 80,1 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Hududlar kesimida




**1 589** — Bino va inshootlar qurish

**496** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**501** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 92,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 61,4 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 88,3 foiz;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,2 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,4 foiz;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 19,4 foiz ulushni va 87,6 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.03.2023- y. | 01.03.2023- y. | |
| Surxondaryo viloyati | 2 798 | 2 586 | 92,4 |
| Termiz sh. | 790 | 805 | 101,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 70 | 70 | 100,0 |
| Angor | 160 | 163 | 101,9 |
| Bandixon | 58 | 70 | 120,7 |
| Boysun | 137 | 131 | 95,6 |
| Denov | 194 | 160 | 82,5 |
| Jarqo‘rg‘on | 236 | 208 | 88,1 |
| Qiziriq | 153 | 123 | 80,4 |
| Qumqo‘rg‘on | 164 | 133 | 81,1 |
| Muzrabot | 120 | 91 | 75,8 |
| Sariosiyo | 160 | 150 | 93,8 |
| Termiz | 244 | 201 | 82,4 |
| Uzun | 65 | 68 | 104,6 |
| Sherobod | 96 | 93 | 96,9 |
| Sho‘rchi | 151 | 120 | 79,5 |



# 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Termiz sh. (31,1)



Termiz (7,8)




Jarqo‘rg‘on (8,1)





# Qurilish ishlari
# 2023- yil yanvar-fevral uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| **Surxondaryo viloyati** | 582,9 | 64,0 | 383,5 | 135,4 |
| Termiz sh. | 169,9 | 9,8 | 151,9 | 8,2 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oltinsoy | 6,0 | - | 2,8 | 3,2 |
| Angor | 16,8 | - | 12,3 | 4,5 |
| Bandixon | 8,0 | 1,1 | 4,2 | 2,4 |
| Boysun | 41,7 | - | 31,9 | 9,8 |
| Denov | 49,3 | - | 26,6 | 22,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 44,2 | 4,1 | 25,9 | 14,2 |
| Qiziriq | 18,0 | - | 13,2 | 4,8 |
| Qumqo‘rg‘on | 18,2 | 2,1 | 10,1 | 6,0 |
| Muzrabot | 20,0 | - | 11,1 | 8,9 |
| Sariosiyo | 89,1 | 46,9 | 26,9 | 15,3 |
| Termiz | 40,8 | - | 32,0 | 8,8 |
| Uzun | 10,9 | - | 6,6 | 4,3 |
| Sherobod | 33,3 | - | 18,1 | 15,2 |
| Sho‘rchi | 16,7 | - | 9,6 | 7,1 |



2023- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 64,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 109,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 2,9 % punktga ko‘payib, 11,0 % ni tashkil etdi.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 5,8 % i yoki 2022- yilga nisbatan 179,2 %), Qumqo‘rg‘on tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,6 % i yoki 2022- yilga nisbatan 15,9 %) va Sariosiyo tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 52,7 % i yoki 2022- yiliga nisbatan 119,7 %)ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,8 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 8,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 71,9 % ni tashkil etgan holda 383,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**



**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**




**MA’LUMOT UCHUN:** *Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Denov tumani (26,6 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 54,6 %), Termiz tumani (32,0 mlrd. so‘m yoki 78,4 %), Boysun tumani (32,0 mlrd. so‘m yoki 7674 %)ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,2 % ni tashkil etdi yoki 135,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan 100,2 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **7,1** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **575,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **1,2 %** va **98,8 %** ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida



| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| **Surxondaryo viloyati** | 582,9 | 7,1 | 1,2 | 575,8 | 98,8 |
| Termiz sh. | 169,9 | 7,1 | 4,2 | 162,8 | 95,8 |
| *tumanlar:* | | | | | |
| Oltinsoy | 6,0 | - | - | 6,0 | 100,0 |
| Angor | 16,8 | - | - | 16,8 | 100,0 |
| Bandixon | 8,0 | - | - | 8,0 | 100,0 |
| Boysun | 41,7 | - | - | 41,7 | 100,0 |
| Denov | 49,3 | - | - | 49,3 | 100,0 |
| Jarqo‘rg‘on | 44,2 | - | - | 44,2 | 100,0 |
| Qiziriq | 18,0 | - | - | 18,0 | 100,0 |
| Qumqo‘rg‘on | 18,2 | - | - | 18,2 | 100,0 |
| Muzrabot | 20,0 | - | - | 20,0 | 100,0 |
| Sariosiyo | 89,1 | - | - | 89,1 | 100,0 |
| Termiz | 40,8 | - | - | 40,8 | 100,0 |
| Uzun | 10,9 | - | - | 10,9 | 100,0 |
| Sherobod | 33,3 | - | - | 33,3 | 100,0 |
| Sho‘rchi | 16,7 | - | - | 16,7 | 100,0 |

# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,5** % i yoki 445,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**13,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 57,8 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **13,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 255,9 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **57,4 %** ni tashkil etdi.

**57,4 %**

**29,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 132,2 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,6 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 582,9 | 80,1 | 100,0 |
| Termiz sh. | 169,9 | 100,8 | 29,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 6,0 | 83,0 | 1,0 |
| Angor | 16,8 | 85,8 | 2,9 |
| Bandixon | 8,0 | 90,7 | 1,4 |
| Boysun | 41,7 | 104,1 | 7,1 |
| Denov | 49,3 | 61,8 | 8,5 |
| Jarqo‘rg‘on | 44,2 | 106,1 | 7,6 |
| Qiziriq | 18,0 | 73,5 | 3,1 |
| Qumqo‘rg‘on | 18,2 | 37,7 | 3,1 |
| Muzrabot | 20,0 | 104,8 | 3,4 |
| Sariosiyo | 89,1 | 80,9 | 15,3 |
| Termiz | 40,8 | 60,2 | 7,0 |
| Uzun | 10,9 | 42,7 | 1,9 |
| Sherobod | 33,3 | 72,9 | 5,7 |
| Sho‘rchi | 16,7 | 77,4 | 2,9 |



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**100,0 %**

**2022- yil yanvar-fevral**

| Ulush | Faoliyat turi |
|---|---|
| 70,2 % | Bino va inshootlarni qurish |
| 21,3 % | Fuqarolik obyektlarini qurish |
| 8,5 % | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |

**2023- yil yanvar-fevral**

| Ulush | Faoliyat turi |
|---|---|
| 69,9 % | Bino va inshootlarni qurish |
| 23,8 % | Fuqarolik obyektlarini qurish |
| 6,3 % | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*

0,1

2022- yil
yanvar-fevral

0,5



74,1

66,2

25,8

33,3

2023- yil
yanvar-fevral

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

**Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,5 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko‘paydi.**

**Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 7,9 % punktga kamayib, 66,2 % ni tashkil etdi.**

**Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 7,5 % punktga ko‘payib, 33,3 % ni tashkil etdi.**

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 41,7 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 12,6 % punktga ko‘paydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 58,3 % ni tashkil etdi (12,6 % punktga kamayish).**

***ulushi % da***



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 11,3 % punktga kamaydi va 10,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 89,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilga nisbatan 11,3 % punktga ko‘paydi.




**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

Aloqa telefoni: ***(76) 225-65-59***